

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

«AVTOMATLASHTIRISH, BOSHQARUV VA MATBAA» FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» kafedrası

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Kafedra mudiri
dots.Pardayeva Z.A.

«____» _____ 2015y.

**« “Qorasu” paxta tozalash korxonasi xususiy kapitali hisobi va tahlili»
mavzusi bo‘yicha yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
dots. Pardayeva Z.A.
Maslahatchi:
ass. Normatova G.X.

Bajardi:«Buxgalteriya hisobi va audit»
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi
Muratbekov O.A.

«____» _____ 2015y.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi. _____ sonli
bayonnomasi «____» _____ 2015 yil.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-bob. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni tashkil etishning nazariy asoslari.....	7
1.1. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning iqtisodiy ko‘rsatkichlari....	7
1.2. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni hisobga olishning vazifalari va me‘yoriy tartibga solinishi.....	13
1.3. Paxta tozalash korxonalarida kapitalning tarkibi va uni tashkil etish manbalari.....	16
II-bob. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda xususiy kapitalni hisobini tashkil etish.....	27
2.1. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda ustav kapitalini shakllantirish va uning harakatini buxgalteriyada hisobga olish.....	27
2.2. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydani hisobga olish tartibi.....	34
III-bob. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning xususiy kapitali tahlilini takomillashtirish.....	42
3.1. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	42
3.2. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning xususiy kapitali tarkibi, o‘zgarishi va dinamikasi tahlili.....	44
IV-bob. Ekologik qism.....	52
Ekologik monitoring va ekologik nazorat.....	52
Xulosa va takliflar.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	59
Ilovalar.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mavjud moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan oqilona va samarali foydalanish lozim. Raqobatga bardosh berish – bu rivojlanishning muhim omillaridan sanaladi. Ayniqsa, mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan korxonalarda xususiy kapital miqdorini ko‘paytirish hamda undan samarali foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida ta’kidlaganlaridek: “...Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o‘tdi. Inflyasiya darajasi yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O‘tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig‘i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo‘lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Kichik biznes sub‘ektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik sub‘ektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog‘oz to‘ldirish yo‘li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko‘p soni ilgarigi 100

kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo‘ldi”¹.

Iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur‘atlari:

- mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash bo‘yicha ishlab chiqilgan tadrijiy taraqqiyot dasturi va ichki talabni rag‘batlantirishga doir chora - tadbirlarni izchil amalga oshirayotganligi;
- iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan siyosatni olib borilayotganligi;
- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini sezilarli darajada oshayotganligi
- moliya-bank tizimining barqaror va samarali faoliyat ko‘rsatayotganligi evaziga erishildi.

Bugungi kunda ayniqsa, bunday natijaga bevosita yurtboshimizning kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan dastur va chora - tadbirlari bevosita bog‘liqdir. Zero, xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va aksiyadorlashtirish jarayonlari bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan va turli mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko‘rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga yetarli darajada ega bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo‘ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo‘lish, uni doimiy tarzda ko‘paytirib borish iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ektning, shu jumladan paxta tozalash korxonalarining rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo‘lib hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapital hisobi va tahlilini takomillashtirishning ayrim nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar M.A.Vaxrushina, N.D.Vrublevskiy, N.P.Kondrakov, I.A.Lamikin, V.F.Paliy, shuningdek, Respublikamiz iqtisodchilari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” 2015 yil 18 yanvar.

A.A.Karimov, A.V.Vaxobov, M.Q.Pardaev, A.X.Pardaev, K.B.O‘razov, B.A.Xasanov, R.O.Xolbekov, O.Bobojonov, A.Abdullaev, F.G‘.G‘ulomova va boshqalarning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida keng yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi - xususiy kapital hisobini nazariy jihatdan keng yoritish, amaliy jihatidan hozirgi holatini o‘rganish va ularni milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi andozalari asosida yaxshilashdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishining quyidagi vazifalar belgilandi:

- xususiy kapitalni hisobga olishning nazariy asoslarini o‘rganish;
- paxta tozalash korxonalarida asosiy faoliyatini tahlili, uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish;
- xususiy kapital hisobini tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni hisobga olinishini o‘rganish;
- korxonaning asosiy faoliyatini tahlili va uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish;
- xususiy kapitalni hisobga olishni yaxshilash yo‘llarini aniqlash;
- xususiy kapitalni ko‘paytirish va undan samarali foydalanish yo‘llarini yoritishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xususiy kapital hisobi va tahlilini takomillashtirish yo‘llarini o‘rganib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob‘ekti va predmeti. Tadqiqot ob‘ekti bo‘lib, “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning moliyaviy hisob va hisobot ma’lumotlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo‘lib, “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda xususiy kapital hisobi va tahlilini tashkil qilish tizimi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari,

Prezidentimiz Islom Karimovning iqtisodiyotimizni rivojlantirish, isloh qilish va erkinlashtirishga oid Farmonlari, Qarorlari, asarlari va ko'rsatmalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining hisob tizimi uslubiyatiga doir me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari tashkil etadi.

Ilmiy izlanish jarayonida mavzuga oid xorijiy, shuningdek mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan va Internet resurslari manbalaridan hamda "Qorasu paxta tozalash zavodi" AJ faoliyatini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobining xususiy kapitalini hisobga olib boruvchi schyot ma'lumotlari, statistik ma'lumotlari hamda boshqa turdagi qo'shimcha malumotlardan foydalanildi.

BMI tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rtta bob, 6-jadval, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning tarkibi uning maqsadi va yo'nalishlarini ifodalaydi.

I-bob. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni tashkil etishning nazariy asoslari

1.1. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJ 1972 yili foydalanishga topshirilgan. Korxona O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining 256 k-PO sonli 30.08.2001 yildagi buyrug‘iga asosan xususiylashtirilgan. Korxona Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumani Hokimining 2001 yil 22 noyabrdagi 487- son qarori bilan ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan.

Korxonaning asosiy maqsadi:

- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq paxta yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalaridan paxta xom-ashyosini sotib olish;
- sotib olingan paxta xom-ashyosini o‘z tarkibidagi paxta qabul qilish maskanlariga qabul qilish va ularni qayta ishlab paxta tolasi, momiq, chigit va boshqa paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish,
- tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishni tashkil qilish.

Shuningdek jamiyat Ustavida ko‘rsatilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanib, ishlab chiqarishda eng yangi va unumdor ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish, jamiyat a‘zolarining ijtimoiy barqarorligini ta’minlab borish asnosida daromad olish.

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning qimmatli qog‘ozlar emissiyasi haqida ma’lumotlar:

Ustav fondi	163662 ming so‘m
Aksiyalar soni	163662 dona
Bir dona aksiyaning nominal qiymati	1000 so‘m

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning aksiyalarining taqsimotini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning aksiyalari taqsimoti

Ustav fondidagi ulushlar	Ustav fondidagi ulush (%)	Aksiyalar summasi (ming so‘m)	Aksiyalar soni (dona)
“Toshkentpaxtasanoat” HAB ulushi	53.75	87976	87976
Boshka aksiyadorlar ulushi	39,23	64230	64230
Erkin savdo va mexnat jamoasi ulushi	7	11456	11456

Paxta tozalash zavodi bir necha marta kapital ta'mirlangan bo'lib, har yili mavsum oldidan joriy ta'mirdan chiqariladi. Korxona texnologik sikliga bog'liq ravishda korxona hududida paxta xom-ashyosini qabul qilish maskanlari, bunt maydonchalari, quritish-tozalash sexi, jin-linter sexi, presslash sexi va tayyor mahsulot ombori mavjud. Jamiyat joylashgan jami er hududi 36,5 ga tashkil qiladi. Korxonaning 3 paxta qabul qilish maskani bor:

- zavod hududidagi maskan
- To'ytepa paxta xom-ashyosi qabul qilish maskani (zavoddan uzoqligi 11 km)
- O'rtasaroy paxta qabul qilish maskani (zavoddan uzoqligi 15 km)

Respublika hukumati va “O'zpaxtasanoat” uyushmasi tomonidan tozalash korxonalarini navbatma-navbat (bosqichma-bosqich) modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihozlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, yaqin kelajakda ushbu loyihalar “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda ham amalga oshirilishi kutilmoqda.

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda 408 kishi ishlaydi. Bundan tashqari paxta tayyorlov mavsumida vaqtinchalik shartnoma bo'yicha paxta tayyorlov maskanlariga bunt bosuvchilar (2013 yil paxta tayyorlov mavsumida har 250 tonna paxta uchun 1 nafar ishchi qabul qilinib, bir kunga 25000- 30000 so'mdan ish haqi

belgilangan) ishga qabul qilinib, tayyorlov mavsumi tugashi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

“Qorasu” paxta tozalash korxonasining biznes rejasida 2014-yilning 1-yarmida 2013-yil paxta hosilidan qoladigan 17302 tonna paxta xom ashyosida 2014-yilning sentyabr-dekabr oylarida 2014-yil hosilidan qabulqilinadigan paxta xom ashyosining 8169 tonnasi, jami bo‘lib, 2014-yil davomida 25471 tonna paxta xom ashyosi qayta ishlanishi va 8398 tonna paxta tolasi olinishi rejalashtirilgan. SHuningdek qayta ishlanadigan 25471 tonna paxta xom ashyosini qayta ishlashdan 13753 tonna chigit, 595 tonna momiq, 255 tonna o‘lik tolali chiqindi va 1172 tonna momikli chiqindi olinadi va sotiladi. SHu jumladan paxta tolasidan 29686,9 mln. so‘m, chigitdan 1911,5 mln. so‘m, momiqdan 236,4 mln so‘m, o‘lik tolali chiqindidan 46,5 mln. so‘m, momikli chiqindidan 161,2 mln. so‘m tushum olinishi hamda asosiy faoliyatdan 2014-yil davomida jami 32042,5 mln. so‘m tushum olinishi rejalashtirilgan.

“Qorasu” paxta tozalash korxonasida 2014-yilda 25157 tonna paxta xom ashyosi qayta ishlangan. 2014-yilda ishlab chiqarishdan 8501 tonna paxta tolasi olingan. Shuningdek 25157 tonna paxta xom ashyosini qayta ishlashdan 12894 tonna chigit, 249 tonna momiq, 232 tonna o‘lik tolali chiqindi va 1538 tonna momikli chiqindi olingan va sotilgan. Paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayoniga 25047429,0 ming so‘mlik ishlab chiqarish xarajatlari bo‘lgan.

Jamiyatda mahsulot sotishdan tushum 39531236 ming so‘m bo‘lib, sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi 34291902 ming so‘mni, sotish xarajatlari 210071 ming so‘mni, ma‘muriy xarajatlar 599657 ming so‘mni, asosiy faoliyatidan xarajatlar 1343179 ming so‘mni, boshqa to‘langan foizlar 1188593 ming so‘mni tashkil etgan. Quyidagi 2-jadvalda “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili keltirilgan.

**“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning texnik-iqtisodiy
ko‘rsatkichlari tahlili**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2013 yil	2014 y	Farqi (+,-)
1	Qayta ishlangan paxta xom-ashyosi	tonna	19344	25157	+5813
2	Ishlab chiqarilgan paxta tolasi	tonna	6372	8501	+2129
3	Tola chiqishi	%	32,9	33,8	+0,9
4	Tovar mahsuloti bahosi	ming so‘m	21418747	33205999	+11787252
5	Tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi	ming so‘m	17753005	27921396	+10168391
6	1 so‘mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari	tiyin	82,9	84,1	+1,2
7	Ishlab chiqarish rentabelligi	%	17,1	15,9	-1,2
8	Davr xarajatlari	ming so‘m	2688753	3993661	+1304908
9	Moliyaviy faoliyat xarajatlari	ming so‘m	938996	1188593	+249597
10	Tovar mahsulotining to‘liq tannarxi	ming so‘m	21380754	33103650	+11722896
11	1 so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan jami xarajatlar	tiyin	99,8	99,7	-0,1
12	Mahsulot sotishdan sof tushum	ming so‘m	25697587	39531236	+13833649
13	Balans foydasi	ming so‘m	230520	270120	+1912570
14	Sof foyda	ming so‘m	124105	167386	+43281

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2014- yilda qayta ishlangan paxta xom ashyosi 25157 tonnani tashkil etib, bu 2013-yilga nisbatan 5813 tonnaga ko‘proqdir. Tola chiqishi 32,9% dan 33,8% ga o‘zgarib, natijada 2014-yilda 8501 tonna paxta tolasi ishlab chiqilgan. 2014-yilda 1 so‘mlik tovar mahsulotiga jami xarajatlar 99,7 tiyinni tashkil etgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan 0,1 tiyinga

kamdir. Korxonaning sof foydasi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 43281 ming so‘mga ko‘payib, 167386 ming so‘mni tashkil etgan.

Umuman olganda, korxonaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘tgan yilga nisbatan joriy yilda korxonaning moliyaviy ahvoli ancha yaxshilangan.

“Qorasu” paxta tozalash korxonasining moliyaviy hisobotlardagi ko‘rsatkichlaridan foydalanib, korxonaning 2012-2014-yillarning oxiridagi moliyaviy holatini belgilovchi koeffitsientlar hisoblab chiqildi.

Ushbu koeffitsientlar tahlili quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

**“Qorasu” paxta tozalash korxonasining moliyaviy holati ko‘rsatkichlari
tahlili**

№	Ko‘rsatkichning nomi	O‘lchov birligi	2012 yil	2013 yil	2014 yil	Farqi (+,-)	
						2012 yilga nisbatan (+,-)	2013 yilga nisbatan (+,-)
1.	Sotish rentabelligi	%	0,32	0,48	0,42	+0,1	-0,06
2.	Aktivlar rentabelligi	%	0,26	0,25	0,31	+0,05	+0,06
3.	Aktivlarning aylanuvchanligi	%	82	52,7	73,4	-8,6	+20,7
4.	Asosiy vositalarning aylanuvchanligi	marta	7,6	5,1	9,3	+1,7	+4,2
5.	Debitor qarzlarning aylanuvchanligi	hafta	0,01	0,06	0,04	+0,03	-0,02
6.	Qoplash koeffitsienti	marta	1,4	1,2	1,19	-0,21	-0,01

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarida ko‘rinib turibdiki, “Qorasu” paxta tozalash korxonasining sotish rentabelligi 2013-yilga nisbatan 0,06 % kamaygan. Aktivlarning aylanuvchanligi 20,7 % ga ko‘paygan. Demak, aktivlarning aylanuvchanligi tezlashgan. Lekin 2012-yilga nisbatan 8,6 % ga pasaygan. Asosiy vositalarning aylanuvchanligi 4,2 martaga ko‘paygan. Debitor qarzlarning aylanuvchanligi 0,02 ga sekinlashgan. Qoplash koeffitsienti 0,01 ga kamaygan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Qorasu” paxta tozalash korxonasining to‘lov

qobiliyatini nisbatan qoniqarli deb hisoblash mumkin. Asosiy muammo jami aktivlarning umumiy rentabellik darajasi past bo'lganidadir. Katta miqdordagi debitorlik qarzdorlikning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sirini kamaytirish rejalashtirilayotgan davrda ham moliyaviy menejment uchun asosiy masala bo'lib qoladi.

1.2. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni hisobga olishning vazifalari va me'yoriy tartibga solinishi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko'rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga yetarli darajada ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning, shu jumladan paxta tozalash korxonalarining ham rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarida ham boshqa mulk shaklidagi korxonalar singari buxgalteriya hisobining ob'ekti bo'lib, moliyaviy xo'jalik faoliyatini shakllantiruvchi aktivlar va majburiyatlar hisoblanadi. Lekin shu bilan birgalikda paxta tozalash korxonalarida shu mulk shaklining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan va buxgalteriya hisobida inobatga olish shart bo'lgan ob'ektlar ham mavjud. Buxgalteriya hisobining shunday ob'ektlaridan biri aksiyadorlik jamiyatlarida mulkni tasarruf etish, boshqarish va unga egalik qilish usuli yordamida liberal iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat ko'rsatishdir. Buxgalteriya hisobida bu jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bularga aksiya chiqarish va uning muomalasi bilan bog'liq operatsiyalar, xususiy (ustav) kapitali, qimmatli qog'ozlar, daromad (foyda), dividend to'lovlari, maxsus shakllanadigan fondlar va foydaning taqsimoti kabi jarayonlar kiradi. Bu jarayonlarning barchasi aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos bo'lgan hisob ob'ektlardir.

Xususiy kapital hisobi hozirgi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudrat darajasi qay darajada ekanligini bildiradi. Shu taraflarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 6 – sessiyasida qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta e'tibor berilgan. Uning

16 – moddasiga ko‘ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5 – shakl “Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot” deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo‘shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim. Paxta tozalash korxonalarida buxgalteriya hisobining ob‘ekti bo‘lib, moliyaviy xo‘jalik faoliyatini shakllantiruvchi aktivlar va majburiyatlar hisoblanadi.

Ushbu ob‘ektlarni tadqiq qilishda buxgalteriya hisobining muhim fundamental tamoyillaridan biri bo‘lgan ikki yoqlama yozuv tamoyiliga asoslaniladi. Buning zahirida quyidagi tenglik yotadi:

$$\text{AKTIV} = \text{XUSUSIY KAPITAL} + \text{MAJBURIYATLAR}$$

Bu tenglikdan ko‘rinib turibdiki, xususiy kapital har bir xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar, shu jumladan paxta tozalash korxonalari faoliyatining mulkiy va moliyaviy holatini ifodalaydi.

Paxta tozalash korxonalarda xususiy kapital bo‘yicha buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ◆ Ustav kapitalini shakllanishi va undan foydalanishni nazorat qilish;
- ◆ Korxona muassislari, kapitalning shakllanish bosqichlari va aksiyalar turlari bo‘yicha axborot to‘plash;
- ◆ Ustav kapitalining holati va harakati xususida hisobot tuzish bo‘yicha ma’lumotlar olishni ta’minlash;
- ◆ Qo‘shilgan kapital hamda rezerv kapitalining shakllanishi bilan bog‘liq muomalalarni o‘z vaqtida hisobda aks ettirish;
- ◆ Korxona sof foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini o‘z vaqtida hisobga olish hamda nazorat qilish.

Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapital hisobi quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

1. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.

3. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan (o'zgarishlar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari" (o'zgarishlar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan 2002 yil 17 aprelda 51 va 002-40-sonli Qarori bilan qabul qilingan "Amaldagi qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda Ustav kapitallarini (jamg'armalarini) shakllantirmagan xorijiy investitsiyalarga ega bo'lgan korxonalardan soliqlarni undirib olish tartibi to'g'risidagi Ustav".
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Mulk qo'mitasi va Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan 2002 yil 25 martda 47, 10-1-48, 2002-33-sonli Qarori bilan qabul qilingan "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan davlat tasarrufidagi (davlat ulushi) aksiyalar bo'yicha dividendlarni hisoblash, to'lash va maqsadli foydalanish tartibi to'g'risidagi Ustav".
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 9 sentyabrda 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schetlar rejasi" BHMS.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/06-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi".
9. 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS). O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan.
10. 14-sonli "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" O'zbekiston Respublikasi BHMS. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrda EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan.

1.3. Paxta tozalash korxonalarida kapitalning tarkibi va uni tashkil etish manbalari.

Xususiy kapital bir qancha ko'rsatkichlar majmuidan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ustav kapitali;
- rezerv kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasida «Xususiy kapital - ustav kapitali, qo'shilgan va rezerv kapitalidan hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi» deb ko'rsatilgan.

Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalning shakllanishi–xo'jalik jarayonini yuritish maqsadida jalb qilingan xususiy mablag'lar, uning faoliyati davomida erishilgan sof foydasi hamda inflyasiya ta'sirida yuzaga kelgan tafovut summolari natijasida jamlangan mablag'lari asosida tartibga solinadi. Shuningdek, bu mablag'lar manbai aksariyat hollarda xo'jalik faoliyatining dastlabki bosqichlaridan yuzaga keladi.

Xususiy kapital deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli bo'lgan mulkning qiymati tushuniladi. Bu kapital jami kapital bilan qarzga olingan kapitalning o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin, ya'ni:

$$K_x = K_j - K_q$$


Bunda:

K_x - xususiy kapital.

K_j - jami kapital.

K_q -qarzga olingan kapital


Quyidagi 1-chizmada paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalning tarkibini ko'rishimiz mumkin.



1-chizma. Xususiy kapitalning tarkibi

Xususiy kapitalni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularni bir qancha belgilar bo'yicha tasniflashni taqozo qiladi. Aksariyat olimlar xususiy kapitalni tasniflash belgilari sifatida ularning turlarini, xizmat muddatlarini, tashkil etish manbalarini olish zarur deb hisoblaydilar. Ularni tasniflashda moddiylik belgisini, turgan joyi, faoliyatda ishtirok etish darajasini ham e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, tasniflash belgilarining tartibini to'g'ri asoslash ham uni o'rganishda muhim omildir. Chunki, bu tizimni aniq belgilash xususiy kapital elementlarini bosqichma-bosqich birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali

schyotlarda aks ettirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiylikka qarab yig'ish, jamlash, to'plashning yaxlit tizimini yaratishga imkon beradi. Bu esa nazariy va metodologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Xususiy kapitalni tasniflashning tarkibiy tizimi quyidagi ketma – ketlikdan tashkil topishi lozim.



2-chizma. Xususiy kapitalni tasniflashning tarkibiy tizimi

Ushbu chizmaga ko'ra, xususiy kapitalni tasniflashning yuqori bo'g'inida uning moddiylik belgisi turadi. Ushbu belgisiga ko'ra, korxona va tashkilotlarning barcha xususiy kapitalini ikki guruhga, ya'ni moddiy xususiy kapital va nomoddiy xususiy kapitalga ajratish mumkin. Moddiy xususiy kapital deganda, korxona va tashkilotlarining moddiy bo'lgan barcha aktivlari tushuniladi. Korxonalarning barcha moddiy xususiy kapitali barcha aktivlarning bir qismi sifatida buxgalteriya balansining «AKTIV» qismida joylashadi. Nomoddiy xususiy kapital o'z ifodasini nomoddiy aktivlarda topadi. Bu ham buxgalteriya balansining aktiv qismida joylashadi. Xizmat muddati belgisi bo'yicha xususiy kapital korxona va

tashkilotlarda qancha muddatda iqtisodiy samara berishi, ya'ni foyda keltirish bilan tasniflanadi. Ushbu belgi bo'yicha barcha xususiy kapitalni uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiy kapitalga ajratish mumkin. Xizmat muddati belgisi sifatida buxgalteriya hisobida, odatda, bir yillik muddat qabul qilingan. Ushbu muddatga ko'ra bir yildan ko'p xizmat qiladigan xususiy kapital uzoq muddatli, 1 yilgacha amal qiladigan xususiy kapital esa qisqa muddatli xususiy kapital hisoblanadi.

Uzoq muddatli xususiy kapitalga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar (patent, litsenziya, turli huquqlar, yangi g'oyalar va boshqalar) va bir yildan kam bo'lmagan muddatga qo'yilgan qo'yilmalar kiradi. Qisqa muddatli xususiy kapitalni adabiyotlarda (shu jumladan, 2004 yil 1 yanvardan qo'llanilib kelinayotgan buxgalteriya balansida) «aylanma aktivlar» deb ham ataydilar. Ularga ishlab chiqarish zaxiralari, tovar moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqalar kiradi.

Faoliyatda ishtirok etish darajasiga ko'ra barcha xususiy kapitallar faol va faol bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Odatda, aylanma mablag'lar, asosiy vositalarning faol qismi (mashina va mexanizmlar) korxona faoliyatida faol ishtirok etadi va ko'proq foyda keltiradi. Hisob-kitoblar bo'yicha boshqa mijozlarda bo'lgan xususiy kapital, ya'ni debitorlik qarzlari korxona faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Turgan joyiga ko'ra xususiy kapital ekspluatatsiyadagi, ya'ni foydalanishdagi va zaxiradagi (konservatsiya qilingan) xususiy kapitalga bo'linadi. Foydalanishdagi kapital - bu korxona va tashkilotlarning moliyaviy - xo'jalik faoliyatini yuritishda qatnashayotgan kapitaldir. Zaxiradagi kapital esa vaqtinchalik qurilishi tugatilmagan binolar, sexlar, ishlab chiqarishga mo'ljallanib sotib olingan, lekin mablag' etishmasligi sababli vaqtincha omborda turib qolgan uskuna va jihozlardan iboratdir.

Turi va ko'rinish belgisiga ko'ra xususiy kapital real moddiy-tovar boyliklaridan iborat bo'ladi, ya'ni u, bino, inshootlar, materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar, pul mablag'lari va boshqalar hisobiga shakllanadi. Bular ham buxgalteriya balansida o'z aksini topgan. Korxona, tashkilot, turli

jamiyatlarning xususiy kapitali, asosan, quyidagi manbalar hisobidan shakllanishini kuzatish mumkin, ya'ni: mulk egalariining mablag'laridan, ta'sischilar ulushidan, faoliyatdan olingan foydadan, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag'lardan va hokazolardan.


Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yangi tashkil etilayotgan korxonalar o'z moliyaviy va moddiy resurslarini mustaqil shakllantiradi. Bunday resurslar, odatda, korxona ta'sischilari tomonidan o'z xususiy mulklarini ustav kapitaliga ulushi sifatida qo'shish bilan yaratiladi.

Ustav kapitali - huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxona muassislari tomonidan ta'sis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan (to'langan) hamda korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlar majmuidir.

Ustav kapitalining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustav kapitalining miqdori korxona ustavi va ta'sis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega bo'ladi. Uning birlamchi miqdorini o'zgarishi faqat korxona ustavini davlat qaydnomasidan qayta o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi;
- Ustav kapitalini haqiqatda shakllantirish vaqt bo'yicha chegaralanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq korxonalar ustav kapitalini shakllantirishning oxirgi muddati bo'lib ta'sis etilgan sanadan boshlab bir yil.
- Ustav kapitaliga ta'sischilarning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya'ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari bilan, kiritilishi mumkin.

Ta'sischilarning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni esa sof foydani ularning har biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo'lib hisoblanadi. Davlat korxonalarida sof foyda taqsimlanmaydi va ustav kapitalining miqdorini oshirishga yo'naltiriladi.



3 – chizma. Xususiy kapitalning shakllanish manbalari

Ustav kapitali korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllariga va mulk shakllariga bog‘liqdir. Davlat korxonalarida ustav kapitali unga davlat tomonidan birkutilgan mulklar majmuasidan tashkil topadi. Xususiy va kollektiv o‘rtoqchilik mulklari asosida tashkil etilgan korxonalarda ustav kapitali ta’sischilarning pay va badallaridan iborat bo‘ladi. Aksionerlik jamiyatlarida ustav kapitali chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisidan tashkil topadi.

Korxona ustav kapitali uning ustavi va ta’sis shartnomasiga muvofiq qoidaga ko‘ra, ta’sischilarning hissalarini hisobiga barpo etiladi. U korxonaning xo‘jalik faoliyatidan olinadigan foydasi hisobiga, zarur bo‘lganda ta’sischilarning maqsadli badallari hisobiga ham to‘ldirilishi mumkin. Korxona ustav kapitaliga hissa sifatida binolar, inshootlar, qurilmalar va boshqa moddiy qiymatliklar: yer,

suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, shuningdek, boshqa mulkiy huquqlar (shu jumladan, kashfiyotlardan foydalanish uchun, «NOU XAU» va boshqa nomoddiy aktivlar); qo'shma korxona ishtirokchi davlatlarining valyo'talaridagi erkin ayirboshlanadigan valyutalarda pul mablag'lari qo'shilishi mumkin. Korxona, tashkilotlar, birlashmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ustav kapitaliga chet el valyo'tasida qo'shiladigan ulushlar «Chet el valyutasida amalga oshiriladigan muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risida»gi qonun talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ustav kapitalini tashkil qilish amaldagi qonunlar va ta'sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko'ra baholanadi va hisobga olinadi.

Bugungi kunda respublikamizda turli mulkchilik shaklidagi korxonalar o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqda. Bularga davlat mulki shaklidagi, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi, ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi, qo'shma korxona shaklidagi va boshqa korxonalar kiradi.

Davlat korxonasining ustav kapitali - davlat tomonidan korxonaning doimiy tasarrufiga tekinga berilgan moddiy va pul mablag'lari summasidir. Ustav kapitali hisobiga asosiy va aylamna mablag'lar shakllanadi. Korxonaga asosiy vosita mavjud ishlab chiqarish hajmiga va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish ob'ektlariga qarab, aylanma mablag'lar esa normativlar asosida beriladi. Normativ yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi. ammo ularni taqsimlashni korxonaning o'zi mustaqil amalga oshiradi.

Amaldagi tartibga ko'ra, korxona ustav kapitali miqdori uning ta'sis hujjatlarida qayd etilgan miqdoriga muvofiq bo'lishi kerak. Davlat korxonlari uchun yuqori turgan tashkilotning korxonani tashkil etish va uning balansiga ustav kapitalini o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i ta'sis hujjati hisoblanadi. Ba'zi hollarda davlat korxonasining ustav kapitali hajmi o'zgarishi mumkin. Ustav kapitali miqdorini faqatgina yuqori tashkilot o'zgartirishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati

ustav kapitali uning aksiyadorlari sotib oladigan aksiyalarining nominal qiymatidan iborat bo'ladi. Bunda chiqariladigan jami aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali miqdori ko'payishi yoki kamayishi mumkin. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasiga muvofiq «Jamiyatning ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin». Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini kamaytirish favqulodda hollarda yuz beradi va uni ko'paytirishdagi singari tartibda amalga oshiriladi. Ustav kapitali miqdorining kamayishi aksiyalar umumiy sonining qisqarishi bilan bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, jamiyatning o'zi haqini keyinchalik to'lash bilan aksiyalarni sotib olishi ham shu hisobga kiradi.

Amaldagi qonunlarga binoan aksiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga hissa tariqasida pul bilan baholanadigan va ta'sischi tomonidan jamiyat aksiyalari haqini to'lash uchun kiritiladigan moddiy boylik, mulkiy yoki o'zga huquqlari to'lashlari mumkin. Jamiyat ta'sis etilayotganda uning aksiyalari pulini to'lash shakllari jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar pulini to'lash ularni joylashtirish to'g'risidagi qarorda ko'rsatiladi. Aksiyador ta'sis yig'ilishi belgilangan muddatlarda, ammo jamiyat ro'yxatdan o'tgandan keyin bir yildan kechikmay aksiyalarning to'liq pulini to'lashi kerak. Aksiyalarni sotib olish muddati o'tganidan keyin aksiyadorlar jamiyati ularni o'z ixtiyoriga qarab sotishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi IV – bob, 62 – moddasiga muvofiq, mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Bunday jamiyat kapitalidagi bo'lingan hissalar miqdori ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Uning ishtirokchilari majburiyatlar bo'yicha faqat o'z mulki doirasida javob beradi.

Amaldagi qonunchilikka binoan korxona, tashkilot va jamiyatlarda rezerv kapitali tashkil etiladi. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 20 foizidan kam

bo'lmashligi kerak. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan jamiyat ustavida belgilangan miqdorga etguncha tashkil etiladi. Rezerv kapitali korxona ko'rgan zararini qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to'lash, aksiyadorlar talabiga ko'ra aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi. SHu bilan birgalikda rezerv kapitali hisobvaraqlari uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyasion rezervlarga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo'ljallangan.

Amaldagi qonunchilikka binoan bepul olingan mol-mulk qiymati foyda solig'i bazasini oshiradi. Bepul olingan mol-mulk ekspert yo'li bilan yoki o'tkazma hujjatlar asosida aniqlangan adolatli qiymat bo'yicha hisobda aks ettiriladi.

Qo'shilgan kapital - aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori bo'lgan narxlar bo'yicha birinchi bor sotilishida vujudga kelgan emissiya daromadi va Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan. Sotib olingan xususiy aksiyalarni jamiyat o'z balansida ushlab turishi yoki ularni jamg'arma bozorida qaytadan sotishi mumkin. Aksiya egalari qarori bilan ustav kapitali sotib olingan xususiy aksiyalar summasiga kamaytirilishi, aksiyalarning o'zi esa bekor qilinishi mumkin. Lekin, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq bunday aksiyalar hisobda bir yildan ortiq bo'lgan muddatda ushlab turilishi mumkin emas.

Taqsimlanmagan foyda – foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin. Paxta tozalash korxonasining barcha yillar bo'yicha faoliyati va hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar summasi bir – biridan farq qiladi. Foydani taqsimlash to'g'risidagi qarorni korxonaning mulkdorlari (aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi) qabul qiladi.

Taqsimlanmagan foyda quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

- Ustav kapitalini ko'paytirishga;
- Rezerv kapitalini yaratish va to'ldirishga;
- Aksionerlarga dividend to'lashga;

- Zararlarni qoplashga;
- Mulkdorlarning qarori bo'yicha boshqa maqsadlarga.

Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar va barcha soliqlar to'langandan keyin korxonada qoladigan foydaning bir qismi dividend hisoblanadi. Odatda, dividendlar hisobot yili yakunlari bo'yicha hisoblanadi. Biroq aksiyadorlik jamiyatlari har chorakda va yarim yilda bir marta, agar bu jamiyat ustavida taqiqlanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Yillik dividendlarni to'lash sanasi aksiyadorlik jmiyati ustavida yoki aksiyadorlar yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

Korxona rahbariyati tomonidan dividendlarni to'lash e'lon qilinganidan so'ng, agar ular kelasi yil uchun to'lanadigan bo'lsa, joriy majburiyatlar sifatida hisobda aks ettiriladi.

Grantlar, subsidiyalar va beg'araz yordamlarni hisobga olish 1998 yil 3 dekabrda Adliya vazirligi tomonidan 562-raqam bilan tasdiqlangan «Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordamini izohlash» nomli 10-son BHMS bilan tartibga solinadi.

- Grantlar deganda ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun Hukumat, nodavlat, xorijiy, hamda xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ko'rsatiladigan tekin, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag'lar tushuniladi.
- Subsidiyalar – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir shartlarga ko'ra davlat tomonidan pul va moddiy aktivlar bilan berilgan yordam summasi. Davlat subsidiyalarining hisobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 19 oktyabrda 52-son bilan tasdiqlangan (10-sonli BHMS) “Davlat subsidiyalarini hisobgaolish va davlat yordamini ochish” Buxgalteriya hisobining milliy standartiga (03.12.1998 yil 562-sonli ro'yxatga olingan, “O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari me'yoriy hujjatlar ma'lumotnomasi” 1999 yil, 6-son) muvofiq amalgaoshiriladi. Shu bilan birgalikda subsidiya va grantlar turli nodavlat, xalqaro tashkilotlar va

jamg'armalar tomonidan muhim dasturlarni amalga oshirish uchun korxonalar tomonidan taqdim etilishi mumkin.

- A'zolik badallari – bu jamiyatning ta'sis hujjatlariga muvofiq belgilangan a'zolik badallari summasi. Yig'ilgan a'zolik badallari jamiyatning faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi. Jamiyat tugatilganda to'plangan a'zolik badallari uning qarzlarini qoplashga yo'naltiriladi.
- Maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari-bu davlat qonunlari asosida korxonani maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliqlardan ozod etish natijasida to'plangan mablag'lar majmuasi. Ushbu maqsadli tushumlarning hisobi maxsus Nizomga, shuningdek 21- son BHMS ga muvofiq yuritiladi.
- “Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar rezerv” hisobvarag'i bir maromda xarajat va to'lovlarni ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlariga kiritish yo'li bilan belgilangan tartibda rezerv qilingan summalar holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash uchun qo'llaniladi. Xususan, ushbu hisobvaraqda asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha kelgusi xarajatlarni summasini aks ettirish mumkin.

Xarajatlarga qo'shiladigan summalarni rezervlash qonun hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlariga muvofiq bunday rezervni tashkil qilish tavsiya qilinmaydi. Chunki korxona uni tashkil etishda o'z hisobotida amalga oshirilmagan xarajatlarni aks ettiradi va foydani kamaytiradi. Tijorat korxonalari, agar hisob siyosatida bu aks ettirilgan bo'lsa, faqat sof foyda hisobiga rezerv tashkil etishlari mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun rezervdan foydalanishda soliq solinadigan baza mazkur xarajatlarni summasiga kamaytiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga rezerv tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, asosan mavsumiy ishlaydigan korxonalar uchun ruxsat etiladi.

II-bob. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda xususiy kapitalni hisobini tashkil etish

2.1. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda ustav kapitalini shakllantirish va uning harakatini buxgalteriyada hisobga olish.

Paxta tozalash korxonalari xususiy kapitalining muhim turi bo‘lib ustav kapitali hisoblanadi.

Ustav kapitali deganda korxonaning ta’sischilari tomonidan unga kiritiladigan mablag‘lar majmuasi, shuningdek chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisi tushuniladi. Ustav kapitalining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Ustav kapitalining miqdori korxona ustavi va ta’sis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega bo‘ladi. Uning birlamchi miqdorini o‘zgarishi faqat korxona ustavini davlat qaydnomasidan qayta o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

- Ustav kapitalini haqiqatda shakllantirish vaqt bo‘yicha chegaralanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq korxonalar ustav kapitalini shakllantirishning oxirgi muddati bo‘lib ta’sis etilgan sanadan boshlab bir tavqim yil hisoblanadi. Ushbu muddatda o‘z ustav kapitalini shakllantirmagan korxonalar yuridik statusini yo‘qotadi va tugatiladi.

- Ustav kapitali korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllariga va mulk shakllariga bog‘liqdir. Davlat korxonalarida ustav kapitali unga davlat tomonidan birkirilgan mulklar majmuasidan tashkil topadi. Xususiy va kollektiv o‘rtoqchilik mulklari asosida tashkil etilgan korxonalarda ustav kapitali ta’sischilarning pay va badallaridan iborat bo‘ladi. Aksionerlik jamiyatlarida ustav kapitali chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisidan tashkil topadi.

- Ustav kapitaliga ta’sischilarning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya’ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag‘lari bilan kiritilishi mumkin.

– Ta’sischiylarning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni esa sof foydani ularning har biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo‘lib hisoblanadi. Davlat korxonalarida sof foyda taqsimlanmaydi va ustav kapitalining miqdorini oshirishga yo‘naltiriladi.

Ustav kapitali bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Ustav kapitalini korxonalarning ta’sis etilgan kuniga aks ettirish;
- Ta’sischiylar tomonidan o‘z ulushlarini belgilangan muddatlarda kiritilishi ustidan nazorat o‘rnatish;
- Ustav kapitalidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisobga olish;
- Chet el investorlari tomonidan chet el valyutasida kiritilgan mablag‘lar bo‘yicha valyuta kurslari o‘rtasidagi farqlarni to‘g‘ri hisobga olish;
- Ta’sischiylar bilan olinadigan dividendlar va ularning hissalarini bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri olib borish;
- Ustav kapitaliga doir ma’lumotlarni moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish va boshqalar.

Paxta tozalash korxonalarida 21- son BHMS ga muvofiq ustav kapitalining hisobi quyidagi schyotlarda olib boriladi:

- 8300 «Ustav kapitali» – davlat korxonalarida;
- 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar» – aksionerlik jamiyatlarida
- 8330 «Pay va badallar» – xususiy va kollektiv o‘rtoqchilik korxonalarida (xususiy savdo va ishlab chiqarish korxonalarida, ma’suliyati cheklangan jamiyatlarda, qo‘shma korxonalarda, xorijiy korxonalarda, sho‘ba korxonalarida, qaram xo‘jalik jamiyatlarida).

Ushbu schyotlarning barchasi passiv schyotlar bo‘lib, ularning kreditida ustav kapitalini vujudga kelishi va ko‘payishi, debetida esa uning kamayishi aks ettiriladi.

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda xususiy kapitalni schyotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	A s o s :
	1. Ustav kapitali			
1.	Ro'yxatga olingan ustav bo'yicha e'lon qilingan ustav kapitali	4610	8310,	ustav, shartnoma
2.	Taqsimlanmagan foyda hisobidan ustav kapitalini oshirish	8720	8310	Qaror
3.	Gudvill summasiga (mulkning balans va sotilish qiymati o'rtasidagi farq)	0440	8310	hisob-kitob
4.	Ustav kapitalini kamaytirish	8310	6620	qaror, hisob-kitob
5.	Davlat strukturasi korxonalari ustav kapitalini oshirish	8720	8310	hisob-kitob
6	Davlat strukturasi korxonalari ustav kapitalini soliq qarzdorliklari hisobidan ustav kapitalni oshirish	6410	8310	
7.	Balansdan balansga beg'araz o'tkazish hisobidan davlat strukturasi korxonalar ustav kapitalining kamayishi	8310	0110, 1010, 2910,	akt, qaror
	2. Qo'shilgan kapital			
1.	Aksiya nominal qiymatidan yuqori qiymatda sotish tufayli yuzaga keladigan emissiya daromadi	5010, 5110	8421	KKO, ko'chirma
2.	Aksiyalarni past qiymatda sotishdan ko'rilgan zararni qoplash	8421	8610-8620	Qaror
3.	Xorijiy ta'sislar ulushlari bo'yicha kurs farqi	0110, 0410, 1010-1090,	8422	hisob-kitob
4.	Aktivlarni bepul olish	0100,0400, 0600,0800, 1000,5010, 5110, 5210	8423	shartnoma, schyot-faktura, KKO, ko'chirma
	3. Rezerv kapitali			
1.	Asosiy vositalarni baholash	0112-0199	8510	Akt
2.	Asosiy vosita bo'yicha eskirishni chiqim qilish	8510	0212-0290	Akt
3.	Rezerv hisobidan nomoddiy aktivlarni chiqim qilish	8510	0410-0490	Akt

4.	Taqsimlanmagan foyda hisobidan rezerv tashkil etish	8710	8510	hisob-kitob
5.	Imtiyozli aksiyalarga dividend hisoblash	8710	6610	hisob-kitob
6.	Korxona tugatilayotganda taqsimlanmagan foyda hisobidan zararlarni chiqim qilish	8510	8720	hisob-kitob
7.	Korxona tugatilayotganda debitorlik qarzlarni chiqim qilish	8510	4890	hisob-kitob, qaror
4. Grant va subsidiyalar				
1.	Grant olish	5010, 5110, 5210, 1010, 0110, 0410	8810	shartnoma, ko'chirma schyot-faktura
2.	Grantning ishlatilishi	8810	6710, 6010, 6910-6990	akt, hisob-kitoblar
3.	Grant va subsidiyalarni ustav, qo'shilgan va rezerv kapitaliga o'tkazish	8810	8310, 8420 8530	Qaror
5. Kelgusi xarajatlarga rezervlar				
1.	Rezervga ajratma.	2010, 2310, 2510, 2710	8910	hisob-kitob
	Fermer xo'jaliklaridan ushlab qolingani quritish va tozalash haqi.	9110, 6030, 6030,	8910, 9010, 6410.	17-PK, schyot faktura, hisob-kitob
2.	Rezervdan foydalanish	8910	2310	hisob-kitoblar
3.	Hisoblangan rezerv korxona daromadiga chiqim qilindi	8910	9390	Qaror

Ustav kapitali korxona ta'sis etilgan sanada, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tgan sanada, vujudga keladi va u buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 4610 «Ta'sischiylarning ustav kapitaliga hissalarini bo'yicha qarzi»

Kredit 8300 «Ustav kapitali», 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar», 8330 «Pay va badallar».

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda korxona ta’sis etilganda quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettirilgan:

Debet 4610 «Ta’sischilarning ustav kapitaliga hissalar bo’yicha qarzi» - 163662 ming so‘m

Kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» - 163662 ming so‘m

Korxona tomonidan chiqarilgan aksiyalar sotilganda quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettirilgan:

Debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» - 163662 ming so‘m

Kredit 4610 «Ta’sischilarning ustav kapitaliga hissalar bo’yicha qarzi» - 163662 ming so‘m

Keyingi davrlarda korxonalarining ustav kapitalini ko‘payishi ta’sischilar safini kengayishi yoki oldingi ta’sischilarning hissalarini oshirilishi, aksionerlik jamiyatlarida esa yangi aksiyalarning chiqarilishi yoki oldingi aksiyalarning nominal qiymati oshirilishi evaziga yuz beradi. Ustav kapitalining bunday yo‘llar bilan ko‘payishi ham yuqorida keltirilgan birinchi yozuv bilan hisobga olinadi. Ustav kapitalini hisobot yilningsof foydasi evaziga ko‘payishi quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 8710 “Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi(qoplanmagan zarari)”

Kredit 8300 «Ustav kapitali»

Ustav kapitalini kamayishi hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

•Ta’sischilarning hissalar kamaytirilganda yoki ayrim ta’sischilar o‘z hissalar bilan ta’sischilar qatoridan chiqib ketganda:

Debet 8330 «Pay va badallar».

Kredit 6620 «Chiqib ketgan ta’sischilarga ularning hissalar bo’yicha qarzi»

• Aksiyalarning nominal qiymati pasaytirilganda yoki aksiyalar soni kamaytirilganda:

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 6620 «Chiqib ketgan ta’sischilarga ularning hissalar bo’yicha qarzi»

• Davlat korxonalarida hisobot yilning zararlari qoplanganda

Debet 8300 «Ustav kapitali»

Kredit 8710 «“Hisobot yilning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”

Ustav kapitalining analitik hisobi korxona ta’rischilar va aksionerlari bo’yicha yuritiladi. Paxta tozalash korxonalari o’zlarining xususiy aksiyalarini qayta sotish yoki ularni bekor qilish uchun qayta sotib olishlari mumkin. Sotib olingan bunday xususiy aksiyalarning hisobi 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar» schyotlarida yuritiladi. Ushbu schyotlar mos ravishdagi 8310 «Oddiy aksiyalar» va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotlariga kontrpassiv schyotlar bo’lib hisoblanadi, ya’ni ushbu schyotlarning summolari balansda alohida qatorda oldiga manfiy (-) belgini qo’yish yoki qizil rang bilan yozish orqali aks ettiriladi. Demak, xususiy kapitalning balans qiymatini topishda hamma vaqt sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati, agar ular mavjud bo’lsa, chegirib tashlanadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish vaqtida sotib olingan qiymatida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

Kredit 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti» 6620 «Chiqib ketgan ta’rischilarga ularning hissasi bo’yicha qarz»

Keyingi davrlarda sotib olingan aksiyalar qayta sotilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Sotib olish qiymatidan yuqori qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 9590 « Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar»

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotilgan aksiyalarga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 5010 «Kassa», 5110 «Hisob-kitob schyoti»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan past qismiga

Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

Nominal qiymatidan yuqori qiymatga sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan ortiq qismiga

Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar», 8410 «Emission daromad»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar».

Sotib olish qiymatidan past qiymatga qayta sotib olingan aksiyalar bekor qilinganda quyidagi yozuvlar qilinadi:

- Sotib olish qiymatiga

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 8610 « Sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar» va 8620 «Sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar»

- Sotib olish qiymatidan past qismiga

Debet 8310 «Oddiy aksiyalar», 8320 «Imtiyozli aksiyalar»

Kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar»

2.2. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydani hisobga olish tartibi

Amaldagi qonunchilikka binoan korxonada rezerv kapitali tashkil etiladi. Uning mikdori jamiyat ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmasligi kerak. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o‘tkazish yo‘li bilan jamiyat ustavida belgilangan mikdorga etguncha tashkil etiladi. Rezerv kapitali korxona ko‘rgan zararini qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to‘lash, aksiyadorlar talabiga ko‘ra aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda rezerv kapitali hisobvaraqlari uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyasion rezervlarga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo‘ljallangan.

Rezerv kapitali hisobi quyidagi hisobvaraqlarda yuritiladi:

8510-«Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar»;

8520-«Rezerv kapitali»;

8530-«Beg‘araz olingan mol- mulk».

8510-«Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» hisobvarag‘i qayta baholash natijasida aktivlar qiymatining oshishini hisobga oladi.

Paxta tozalash korxonalarida rezerv kapitali schyotlarida ta’sis hujjatlarida, odatdagidek, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda yuzaga keladigan inflyasion rezervlarga muvofiq foyda hisobiga tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo‘ljallangan.

8510 – «Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti qayta baholash natijasida aktivlar qiymatini oshishini hisobga oladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash, odatda, hukumat qaroriga ko‘ra, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarni bozor qiymatigacha qayta baholash aktivning bozor qiymatini aniq belgilashi mumkin bo‘lgan sharoitda paxta tozalash korxonalarida hisob siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, qayta baholashni shunday amalga oshirish kerakki, har bir

hisobot sanasidagi aktivning balans qiymatini uning bozor qiymatidan keskin farqlanmasligi kerak.

Paxta tozalash korxonasi o'z investitsiyalarini qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olsa, u holda qayta baholashdan olingan daromad rezerv sarmoya schyotlarida aks ettirilishi lozim.

Debet 0610 – «Qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i

Kredit 8510 – «Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» hisobvarag'i

Agar navbatdagi hisobot davriga kelib bu qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati kamaysa, unda mazkur qimmatli qog'ozlar bo'yicha avvalgi qayta baholash doirasida rezerv sarmoyaning kamaytirish hisobiga uni qoplash mumkin. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha tashkil etilgan rezervdan oshuvchi narxning pasayish summasi xarajat sifatida tan olinadi.

Asosiy vositalarni (hukumat qaroriga binoan) qayta baholash summasi, shuningdek, o'z kapitalining oshishi sifatida aks ettiriladi.

Balans qiymatidan yuqori bahoda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ekt ustav kapitaliga mol-mulkni kiritish chog'ida ham «Rezerv sarmoya» schyotida qo'llaniladi.

TMZ kabi joriy aktivlarni qayta baholash buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillarini («ehtiyotkorlik» yoki «konservatizm» tamoyillari) zid keladi hamda «Tovar moddiy rezervlar» 4 – son BHMSga muvofiq TMZ tannarxi va sof foyda qiymatidan eng kam baho bo'yicha baholanadi. Biroq, agar garchi TMZni qayta baholash amalga oshirilgan bo'lsa, qayta baholash summasi ularni sotish (yoki ishlab chiqarishga jalb etish) tadbirlari bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning daromadiga qo'shiladi. Faqat favqulodda holatlarda (rezervlar bahosini pasayishida, rezervlarga zarar etishida, ularning eskirishida) TMZ bahosi pasayadi hamda o'z kapitali schyotlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

8520 – «Rezerv kapitali» hisobvarag'idan turli rezervlarni hisobga olishda foydalaniladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari rezerv kapitali ustavda belgilangan miqdorda unga qadar har yili sof foydadan ajratmalar yo'li bilan shakllantiriladi:

Debet 8710 – «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»

Kredit 8510 – «Rezerv kapitali»

Rezerv kapitali uning zararlarini qoplash, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, aksiyadorlarning talablariga ko'ra aksiyalarni sotib olish, jamiyat obligatsiyalarini so'ndirish, qarzni hisobdan chiqarish hamda so'ndirish imkoniyatlari mavjud bo'lmagan-da boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan.

Hisobot davrida foyda mavjud bo'lmaganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi va quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettiriladi:

Debet 8510 - «Rezerv kapitali»

Kredit 6610 – «To'lov uchun dividendlar»

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tugatilayotganda turli debitorlarning qarzlari hisobdan chiqariladi.

Debet 8510 - «Rezerv kapitali»

Kredit 4010 - «Buyurtmachi va xaridorlardan olinadigan hisobraqamlar»

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorlarda rezerv kapitalini tashkil etish ham qonun hujjatlarida nazarda tutilgan. Adliya vazirligida 1997 yil 29 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan «Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi 382 – sonli yo'riqnomaga muvofiq xorijiy investitsiya ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun soliqqa tortiladigan daromad rezerv fondiga 20% gacha miqdorda ajratmalar summasiga mazkur fond ustav kapitalining 25%i miqdoriga etgunga qadar kamaytiriladi.

Taqsimlanmagan foyda bu hisobot davri yakunida paxta tozalash korxonalari ixtiyorida qoladigan sof foyda (foydaning bir qismi)dir. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga olishda quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi:

8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hisobvarag'ida korxona faoliyatining butun hisobot yilidagi taqsimlanmagan foydasi (koplanmagan zarari) hisobga olib boriladi.

8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» hisobvarag'ida korxonaning butun faoliyati davomidagi zarar, dividendlar bo'yicha to'lovlar hamda ustav kapitaliga qayta investitsiyalangan foydani chegirgan holda sof foyda summasini ifodalovchi jamlangan foyda hisobga olib boriladi.

Hisobot yili yakuni bo'yicha taqsimlanmagan foyda «Qorasu paxta tozalash zavodi» AJning balans hisobotida yig'ilib, har yilgi majburiy auditor xusosasi bilan tasdiqlanadi.

Taqsimlanmagan foydaning hisobi 8710 «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zararlar)» schyot va 8720 «Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotlarida yuritiladi. Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (zarar) summasi dividend va maqsadli fond hisoblangandan so'ng qolgan summa 8720 «Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan foyda)» schyotiga o'tkaziladi.

Taqsimlanmagan foydani dividendi uchun to'lov, maqsadli fondlarni tashkil etish va to'ldirish, «Qorasu paxta tozalash zavodi» AJ umidsiz qarzlari va boshqa maqsadiga qarzlarni qoplash faqatgina O'zbekiston Respublikasi «Aksionerlik jamiyatlari va aksionerlarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi Qonuni va «Qorasu paxta tozalash zavodi» AJ ustaviga asosan «Qorasu paxta tozalash zavodi» AJ aksionerlarining umumiy yig'ilish va aksionerlik jamiyatining Kuzatuv Kengashi qarori bilan tasdiqlangan holdagina amalga oshiriladi.

Hisobot davridagi sof foyda taqsimlanmagan foydani oshiradi va u quyidagicha buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)».

«Qorasu paxta tozalash zavodi» AJda korxonada joriy 2014 yilda barcha soliq va majburiy to'lovlar to'langandan keyingi moliyaviy natijasi aniqlanib, taqsimlanmagan foydaga o'tkazildi va quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettirildi:

D-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» - 167386000 so'm

K-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» - 163386000 so'm.

Korxona sof foydasidan aksiyadorlarga dividend to‘lanadi. Korxonada dividendlar hisobi va ta’sischilar oldidagi boshqa majburiyatlarni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

6610-«To‘lov uchun dividendlar» hisobvarag‘i;

6620-«Chiqib ketayotgan muassislardan ularning ulushlari bo‘yicha qarzlarni» hisobvarag‘i.

Bu hisobvaraqlar passiv hisoblanadi va ular bo‘yicha saldo faqat kredit tomonda bo‘ladi. Ushbu hisobvaraqlar krediti bo‘yicha oborotlar hisoblangan dividendlarni yoki chiqib ketayotgan muassislarning ulushiga doir majburiyatlarni, debeti bo‘yicha oborotlar esa dividendlar to‘lovi hamda muassislarni oldidagi qarzlarning so‘ndirilishini ifodalaydi.

Dividendlar hisoblanganida quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

D-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»

K-t 6610-«To‘lov uchun dividendlar».

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda korxonada aksiyadorlarga dividendlar hisoblanganda quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettirilgan:

D-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» - 167386000 so‘m

K-t - 6610-«To‘lov uchun dividendlar» - 163386000 so‘m.

Dividendlardan 10%lik stavka bilan undiriladigan soliq to‘lov manbaida bo‘ladi:

D-t 6610-«To‘lov uchun dividendlar»

K-t 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni».

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda korxonada hisoblangan dividendlar uchun soliq hisolanishi quyidagicha buxgalteriya yozuvida aks ettirilgan:

D-t 6610-«To‘lov uchun dividendlar» - 16738600 so‘m

K-t 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni» - 16738600 so‘m.

Soliq summasi byudjetga o‘tkazilganida:

D-t 6410-«Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni».

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

Kassadan dividendlar to'langanida:

D-t 6610-«To'lov uchun dividendlar»

K-t 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari».

Agarda muassis chiqib ketayotgan bo'lsa, u holda jamiyatning muassislari oldidagi qarzlari quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 8310, 8320, 8330-Ustav kapitalini hisobga olish hisobvaraqlari

K-t 6620-«Chiqib ketayotgan muassislardan ularning ulushlari bo'yicha qarzlari»

To'lov paytida:

D-t 6620-«Chiqib ketayotgan muassislardan ularning ulushlari bo'yicha qarzlari»

K-t 5110, 5010-Pul mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlari.

Hisobot yilidagi taqsimlanmagan foyda (zarar) summasi dividendlar hisoblanganidan so'ng 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» hisobvarag'iga hisoblab o'tkaziladi.

Foyda olingan holatda:

D-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»

K-t 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)».

Zarar ko'rilganda:

D-t 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)»

K-t 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)».

Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar va barcha soliqlar to'langandan keyin korxonada qoladigan foydaning bir qismi dividend hisoblanadi.

Korxona rahbariyati tomonidan dividendlarni to'lash e'lon qilinganidan so'ng, agar ular kelasi yil uchun to'lanadigan bo'lsa, joriy majburiyatlari sifatida hisobda aks ettiriladi. AJ quyidagi hollarda dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas:

- ♦ jamiyatning ustav kapitali to'liq to'languniga qadar;

- ♦ agar dividendlarni to'lash paytida u bankrotlik belgilariga javob bersa yoki jamiyatda dividendlarni to'lash natijasida bankrotlik alomatlari paydo bo'lsa;
- ♦ agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav va rezerv kapitali summalaridan kam bo'lsa.

Dividendlar, nafaqat, pul mablag'lari, balki aksiyalar bilan ham to'lanishi mumkin.

Aksiyalar ko'rinishidagi dividendlar «kapitallashtirish»da taqsimlanmagan foyda sifatida ifodalanuvchi, aksiyadorlar uchun qo'shimcha aksiyalar chiqarishdir.

Aksiyalar bilan dividendlar to'langanida AJning majburiyatlari yoki aktivlarida o'zgarish yuz bermaydi, chunki dividendlar pul mablag'lari ko'rinishida to'lanadigan holatdagi kabi korxona mablag'lari taqsimlanmaydi. Ya'ni dividendlar aksiyalar bilan to'langanida xususiy kapital hajmi o'zgarmaydi, faqat uning tuzilmasi o'zgaradi. Bundan tashqari, aksiyalar ko'rinishida olingan dividendlar jismoniy shaxslarda soliqqa tortishdan ozod qilinadi.

Dividendlar, shuningdek, natura ko'rinishida ham berilishi mumkin.

Aksiyadorlarga tayyor mahsulot dividend sifatida berilganida ham QQS hisoblanadi. QQS to'lovchisi bo'lgan korxona esa mahsulot sotilishi bo'yicha oborotdan ham QQS hisoblashi kerak.

Dividendlar hisoblab tuzildi:

D-t 8710- «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»

K-t 6610-«To'lov uchun dividendlar».

QQS bilan maxsulot sotilishi aks ettirilgan:

D-t 6610-«To'lov uchun dividendlar»

K-t 9010-«Tayyor maxsulot sotilishidan olingan daromadlar»

K-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar»

Tayyor maxsulot tannarxi hisobdan chikarildi:

D-t 9110-«Sotilgan maxsulotning tannarxi»

K-t 2810-«Ombordagi tayyor mahsulot»

Mazkur holatda ham 10%lik stavka bo'yicha dividenddan soliq hisoblanadi va aksiyadorlar bu summani korxona kassasiga to'laydilar.

Dividendlardan 10%lik stavka bilan undiriladigan soliq to'lov manbaida bo'ladi:

D-t 6610-«To'lov uchun dividendlar»

K-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzar»

Aksiyadorlarga natura holida dividend berish natijasida moliyaviy natija aniqlandi:

D-t 9010-«Tayyor mahsulot sotilishidan olingan daromadlar»

K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9110-«Sotilgan maxsulotning tannarxi»

9900-hisobvaraqdagi saldo ushbu tadbirdagi foyda (zarar)ni ko'rsatdi. Ushbu holatda 9900-hisobvaraqa bo'yicha kredit saldosi korxona tomonidan bu tadbirda olingan summadagi foydani aks ettiradi va korxona bu summadan soliq to'lashi lozim.

3-bob. “Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning xususiy kapitali tahlilini takomillashtirish.

3.1. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki, uning holatiga qarab jami mablag‘lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda o‘ta muhim masala hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarining xususiy kapitali o‘z mablag‘lari manbaining asosini tashkil etuvchi ko‘rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zahira kapitali, qo‘shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Paxta tozalash korxonalarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash manbai bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘z mablag‘lar manbai;
- Qarz mablag‘lari.

Paxta tozalash korxonalari ochilish davrida o‘z mablag‘larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag‘larni qaysi manbaa hisobiga qoplash kerakligini ko‘rib o‘tiladi. Agarda korxonaning o‘z mablag‘lari etarli bo‘lsa o‘z mablag‘lar manbai hisobiga, aks holda esa qarz mablag‘lari hisobiga qoplaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir korxona o‘z moliyaviy ehtiyojlarini o‘zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta’minlash manbai bo‘lib, uning foydasi, qimmatbaho qog‘ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay va boshqa to‘lovlari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to‘lovlari hamda qonundan tashqari bo‘lmagan holda kirim qilingan

mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxona tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Paxta tozalash korxonalarining xususiy kapitali tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokozolar kiradi.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbai bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1- bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda tahlil ishlari olib boriladi. Paxta tozalash korxonalarining xususiy kapital hisobi 12- «Jurnal orderi» da yuritilib, ushbu hujjat shakli ham axborot manbai hisoblanadi.

2. Paxta tozalash korxonalarida xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili

Paxta tozalash korxonalarining xususiy kapitali o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan kapital;
- Rezerv kapitali;
- Taqsimlanmagan foyda;
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Paxta tozalash korxonalarining ustav kapitali o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischi tomonidan qo'yilgan pay to'lovlarini, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischi tomonidan yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

1. Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun;
2. Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish;
3. Boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda - bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan

zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710- «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – “Jamgʻarilgan foyda (qoplanmagan zarar)” schyotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi.

Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsientlar usuli eng ilgʻor usullardan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsientlar oʻrganiladi va ularni shartli ravishda toʻrtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsientlari;
2. Likvidlik koeffitsientlari;
3. Toʻlov qobiliyati koeffitsientlari;
4. Bozor indikatorlari.

Bu koʻrsatkichlar ham oʻz tarkibiga bir qancha koeffitsientlarni oladi:

Demak, birinchi koʻrsatkich tarkibiga:

- Xususiy kapital rentabelligi;
- Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi;
- Leveridj;
- Sotish rentabelligi.

Likvidlilik koeffitsientlariga:

- A) Tez likvidlanadigan koeffitsientlar;
- B) Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti;
- V) Ishlab chiqarish zahiralarini aylanishi koeffitsienti;
- G) Qiyin likvidlanish koeffitsienti.

Toʻlov qobiliyatini izohlovchi koeffitsientlarga quyidagilar kiradi:

- Qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsienti;
- Xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsienti;
- Qarz mablagʻlarining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summolari oʻrganiladi.

Bu koeffitsientlar ichida xususiy kapital tahliliga tegishli koeffitsientlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

Sof foyda

Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati

ko'rinishida hisob- kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

*Sof foyda + (Kreditlar uchun foiz*foyda solig'ining korektirovka qilingan stavkasi)+Rezervlar uchun ajratma.*

Jami aktivlarning o'rtacha qiymati

kabi hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu erda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatini yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korektirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leverdj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa korxonaning xususiy kapitalini shunchalik o'sganligini beradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsienti.

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbaiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsient yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A_1 > A_2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti.

Xususiy kapital qiymatini

Jami mablag'lar

formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsient qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsientning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakliga asoslanib yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan xususiy kapitalning o'zgarishini tahlil qilish mumkin. Tahlil natijasini quyidagi 6-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

5-jadval

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJning xususiy kapitali va uning dinamikasini tahlili

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	O'zgarishi (+,-)	
				2012 yilga nisbatan	2013 yilga nisbatan
1. Ustav kapitali	163662	163662	163662	0	0
2. Qo'shilgan kapital	-	-	-	-	-
3. Rezerv kapitali	1098870	1194817	1471752	+372882	+276935
4. Taqsimlanmagan foyda	83447	124105	167386	+83939	+43281
5. Maqsadli tushumlar va boshqalar	10494327	11078783	11244709	+750382	+165926
JAMI:	11840306	12561367	13047509	+1207203	+486142

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan "Qorasu paxta tozalash zavodi" AJning xususiy kapitali joriy 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 1207203 ming so'mga, 2013 yilga nisbatan esa 486142 ming so'mga oshgan. Bu natija korxona uchun ijobiy deb qaralishi lozim.

Bunday o'zgarishning hosil bo'lishida hisobot yilida taqsimlanmagan foydaning 2012 yilga nisbatan 83939 ming so'mga, 2013 yilga nisbatan esa 43281 ming so'mga, rezerv kapitalining 2012 yilga nisbatan 372882 ming so'mga, 2013 yilga nisbatan esa 276935 ming so'mga va maqsadli tushumlar va boshqalarning 2012 yilga nisbatan 750382 ming so'mga, 2013 yilga nisbatan esa 165926 ming so'mga oshishi katta ta'sir etgan.

Xususiy kapitalning qolgan turlari bo'yicha yil davomidagi harakati kuzatilmagan. Quyidagi -jadval ma'lumotlaridan "Qorasu paxta tozalash zavodi" AJning xususiy kapitali tarkibining tahlilini ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

"Qorasu paxta tozalash zavodi" AJning xususiy kapitali tarkibining tahlili

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		O'zgarishi (+,-)	
	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
1. Ustav kapitali	163662	1,30	163662	1,25	0	-0,05
2. Qo'shilgan kapital	-		-	-	-	-
3. Rezerv kapitali	1194817	9,51	1471752	11,28	+276935	+1,77
4. Taqsimlanmagan foyda	124105	0,99	167386	1,28	+43281	+0,29
5. Maqsadli tushumlar va boshqalar	11078783	88,2	11244709	86,18	+165926	-2,02
JAMI:	12561367	100	13047509	100	+486142	-

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, xususiy kapital tarkibida asosiy salmoqni maqsadli tushumlar va boshqalar tashkil etadi, 2013 yilda 88,2%ni, joriy 2014 yilda 86,18%ni tashkil etgan. Ustav kapitali o'zgarishsiz qolgan. Korxonada qo'shilgan kapital mavjud emas. Rezerv kapitali o'tgan yilga nisbatan 276935 ming so'mga ko'payib, 1471752 ming so'mni tashkil etgan. Rezerv kapitalini ko'payishiga sabab, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholanishi, ya'ni 276935 ming so'mga ko'paygan.

Ijobiy natija deb qaralishini yana bir tarafi shundaki, xususiy kapitalning asosini rezerv kapitali tashkil qilganidir. Bu esa kelgusida korxonaning xususiy kapitali yanada ko'payib borishidan dalolat beradi.

1999 yil 28 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibini soddalashtirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. Bu farmonga ko'ra moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyati tuzilgan maxsus hududiy komissiyalar ko'rsatmasiga ko'ra to'xtatiladi.

Shunday ekan, yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinib turibdiki, xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Sababi, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur vazifalarni hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi

to'g'risidagi Nizom»ni chuqur bilishlari lozim. Unda foydani shakllantirish muammolarini chuqur o'rganishlari lozim

Paxta tozalash korxonalari xususiy kapitalini ko'paytirish yo'llarini yaxshilashda avvalambor korxona buxgalteri va iqtisodchisi tomonidan korxona mavjud kapitalini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Korxona kapitalini tahlil qilishning asosiy maqsadi bo'lib rejalashtirishgacha bo'lgan davrda kapital hajmi va tarkibining dinamik harakatini va ularning kapitaldan foydalanish samaradorligi va moliyaviy mustaqilligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Bunda asosan korxona, tashkilot iqtisodchisi tomonidan kapitalning umumiy hajmi va asosiy tarkibiy qismlari o'sish sur'atlarini sotiladigan tovarlar hajmi o'sish sur'atlari bilan taqqoslagan holda ko'rib chiqiladi; xususiy va qarzga olingan kapitalning o'zaro munosabatlari va uning harakatlari aniklanadi; qarzga olingan kapital tarkibida uzoq va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat tadqiq etiladi; muddati o'zgartirilgan moliyaviy majburiyatlarning miqdori aniqlanadi va uzaytirish sabablari o'rganiladi.

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarni o'zgarishi orqali amalga oshadi.

1. Ustav kapitali;

Bu schyot xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatbaho qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin.

2. Qo'shilgan kapital.

Bu schyot quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- xususiy (hissador) kapitali qiymatining o'zgarishi;
- muomalaga qo'shimcha aksiyalarning chiqarilishida;
- asosiy vositalarni qayta baholanishida;
- foyda va zararlarni hisobiga.

3. Rezerv kapitali ham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar.

4. Taqsimlanmagan foyda. Bu ko'rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko'payish yoki kamayishi, qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

- hisobot davrida olingan zarar;
- qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi;
- hissador kapitalining ko'p yoki kam bo'lishi kabi ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Bu o'zgarishlar "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"da ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

IV-Bob. Ekologik qism.

Ekologik monitoring va ekologik nazorat

Ekologik boshqaruv tabiat holati va unda turli jarayonlar rivojlanishi to'g'risidagi ekologik axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Monitoring o'rganilayotgan ob'ektning holatini tartibga solingan kuzatish majmuasi va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar dinamikasini tasvirlash, vaziyat rivojini prognozlashni bildiradi.

Ekologik monitoring atrof tabiiy muhitning kompleks monitoringini tashkil etish hisoblanadi. U inson yashaydigan muhit sharoiti va biologik ob'ektlar (o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar), ekotizimlarni doimiy baholashni ta'minlaydi, shuningdek tabiiy muhit sharoitlariningnoqulay tomonga o'zgarishlariga yo'l qo'ymaydigan tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etadi.

Atrof tabiiy muhit monitoringi O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi (1992yil) qonuni 28-moddasiga muvofiq quyidagi maqsadni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

«O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslarini kuzatish, hisobga olish, ularga baho berish va ularning istiqbolini belgilashni ta'minlash maqsadida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi tashkil etiladi.

Atrof tabiiy muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv maxsus vakolat berilgan idoralar, shuningdek, faoliyati atrof tabiiy muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan amalga oshiriladi».

Ekologik monitoringning axborot maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy muhit sifati ko'rsatkichlarini olish;
- biosferaning eng ko'p zararlangan uchastkalarini aniqlash va ularni miqdoriy baholash;
- erta xabardor qilish ko'rsatkichlarini olish.

Ekologik monitoring quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tabiiy muhit, geotizimlar, tabiat ob'ektlari va ularga antropogen ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni doimiy kuzatish va sifat jihatidan baholashni amalga oshirish.
2. Tabiat ob'ektlariga sezilarli zarar etkazishdan oldin salbiy ta'sirning sabablari va yo'nalishini oldindan aniqlash.
3. Aholi yashash muhitining ekologik sharoitlari, biologik ob'ektlarning holati, shuningdek, ekotizimlarning funksional yaxlitligini uzluksiz baholash.
4. Salbiy omillarning kuchayib borishida ob'ekt va tizimlarga tuzatish ta'sirini belgilash.

Ekologik boqaruv ekologik monitoring xizmatidan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlik maqsadlari uchun quyidagi ob'ektlar guruhi va ularning o'zaro aloqalari to'g'risida quyidagi ishonchli va to'liq axborotlarni olishi mumkin:

- biotik muhit (o'simlik va hayvonot dunyosi);
- abiotik muhit (o'zaro bog'liq tabiat komponentlari, sanoat komplekslari va aholi yashash manzillari);
- antropogen ta'sir ob'ektlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar.

Bu ob'ektlar to'g'risidagi axborotlar ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirini hisobga olib, asoslangan ekologik boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu ob'ektlardan har birining holatini aniqlash uchun turli asboblardan foydalanish asosida ekologik nazorat amalga oshiriladi.

Ekologik nazorat O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi (1992yil) qonunning 29-31-moddalariga muvofiq quyidagi uchta asosiy darajada amalga oshiriladi:

- davlat tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati;
- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy, ishlab chiqarish nazorati;

- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi jamoat nazorati.

Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati «tabiiy muhitda sodir bo‘layotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosferahavosi, tuproq, er usti va er osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning o‘simlik va hayvonot dunyosiga ta’siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof-muhitda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga oid taxminlar bilan ta’minlash maqsadida tashkil etiladi» (30-modda). Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, maxsus davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi(31-modda).

«Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy nazoratni amalga oshiradi. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmatlari amalga oshiradi, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof-tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish maqsadini ko‘zlaydi» (32-modda).

«Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi jamoat nazoratini jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar amalga oshiradilar» (32-modda).

Ekologik monitoring tizimini yanada tkomillashtirish muntazam kuzatuvlarning texnologik darajasini takomillashtirish (namunalar olish, o‘lchovlarning aniqligi, tahlillarning sifati va shu kabilar) yo‘lidan ham, monitoring tarmog‘ini kengaytirish va noaniq ifloslantirish manbalarini (kollektor-zovur suvlari, maishiy oqava suvlarini markazlashtirilgan holda tashlab yuborish, yo‘l transporti) to‘liqroq qamrab olish yo‘lidan ham bormog‘i kerak.

Shuningdek, monitoring uchun, tuproq eroziyasi va erlar buzilishi, sel oqimlari va tog‘ ko‘chish hodisalari, erlarning cho‘lga aylanishi va atrof tabiiy muhitga boshqa salbiy ta’sir ko‘rsatishga doir ma’lumotlarni to‘plash va tahlil

qilish uchun asta-sekin tuzilmalar barpo etish ham zarur bo'lib, tarmoq va ekologik siyosatini ishlab chiqish vaqtida ularni hisobga olish muhimdir.

Mamlakatning hamma tumanlarida suv va gazning amalda sarflanishini schetchiklar yordamida o'lchashga o'tish suv va gazdan foydalanishni ekologiyalash uchun axborot sharoitlarini yaratish sohasidagi eng dolzarb choradir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan Davlat kadastrlari yagona xizmati (DKYAX)ni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga alohida e'tibor berish kerak.

«O'zgeodezkadastr» respublika hududida hamma kadastrlarning (ularning turi esa 30 dan ortiq) yuritilishini muvofiqlashtiribgina qolmay, er kadastrini negizida asosiy kadastr axborotining hammasini o'zida jamlaydi. Undan foydalanish tabiatdan to'la foydalanish, soliq solish va hokazo tizimlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Paxta tozalash korxonalari xususiy kapital hisobi va tahlili borasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar qilindi:

Xususiy kapital hisobi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudrat darajasini qay darajada ekanligini bildiradi.

Har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko'rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga etarli darajada ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning, shu jumladan paxta tozalash korxonalariining rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishida xususiy kapitalni buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatida mohiyatini o'rganish uchun bir qancha adabiyotlardan mualliflarning fikrlari o'rganildi va yakunda xususiy kapitalga quyidagicha ta'rif berildi:

Xususiy kapital deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli bo'lgan mulkning qiymati tushuniladi. Bu kapital jami kapital bilan qarzga olingan kapitalning o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin. Xususiy kapital – ustav kapitali, qo'shilgan va rezerv kapitalidan hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda xususiy kapital hisobi va tahlili oldida qator muhim vazifalar turadi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Ustav kapitalini shakllanishi va undan foydalanishni nazorat qilish;
- Korxona muassislari, kapitalning shakllanish bosqichlari va aksiyalar turlari bo'yicha axborot to'plash;

- Ustav kapitalining holati va harakati xususida hisobot tuzish bo'yicha ma'lumotlar olishni ta'minlash;
- Qo'shilgan kapital hamda rezerv kapitalining shakllanishi bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida hisobda aks ettirish;
- Korxona sof foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini o'z vaqtida hisobga olish hamda nazorat qilish;
- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokozolar.

Xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishlari eng optimal variant deb qaraladi. Sababi, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashini taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur vazifalarni hal etishda korxona va tashkilotlar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chuqur bilishlari lozim. Unda foydanishakllantirish muammolarini chuqur o'rganishlari lozim.

“Qorasu paxta tozalash zavodi” AJda xususiy kapitalni hisobga olishga oid hujjatlar respublikamizdagi qonunchilikka asosan tuzilgan. Shuningdek, korxonada xususiy kapitalni buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettirilishi ham 21 son BHMS talablari asosida aks ettirilmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagilar taklif qilinadi:

- yuqori iste'molchilik xususiyatiga ega bo'lgan sifatli va raqobatbardosh yangi istiqbolli paxta navlarini yaratishga qaratilgan muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish;
- korxonaning sof foydasi o'sishini ta'minlash;

- xususiy kapital hisobini tashkil qilishni yanada yaxshilash uchun buxgalteriya hisobining avtomatlashgan shakli bo'lgan buxgalteriya hisobi dasturi "1C:Buxgalteriya-8"dan keng foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2010.- 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida” gi Qonuni. – T.: 1996-yil 30-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi” Qonuni. Toshkent, 2003.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va vazirlikning qarorlari va boshqa rasmiy hujjatlari

4. “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida”gi Nizom.-T.:1999 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi “Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar” to'g'risidagi 140-son buyrug'i.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015-yilda O'zbekistonni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan

xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” ma’ruzasi. “Xalq so‘zi” 2015 yil 18 yanvar.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

9. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida ”. Islom Abduganievich Karimov –T.16-T.: “O‘zbekiston”, 2008-368 b.
10. Karimov I.A. “YUksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. – T.: “O‘zbekiston”, 2008-176 b.
11. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. -T.: “O‘zbekiston”, 2009-56 b.
12. Karimov I.A. “O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 440 b.
13. Karimov I.A. “Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning asosidir”. Xalq so‘zi. 2013, 09 may. № 91 (5765).

IV. Kitoblar, darsliklar, maqolalar to‘plami

14. Bobojonov O., Jumaniyazov Q. Moliyaviy hisob. Darslik. 1-qism. T.: “Moliya”. -672 b.
15. Bobojonov O., Jumaniyazov Q. Moliyaviy hisob. Darslik. 2-qism. T.: “Moliya”. -80 b.
16. Sotivoldiev A. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: O‘zR B va AMA , 2005. -492 b.
17. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T.:SHarq, 2004.-592 b.
18. Ochilov I.K. va boshq. Moliyaviy hisob. – T.: TMI (o‘quv qo‘llanma) 2003.- 256 b.
19. Ochilov I.K. va boshq. Moliyaviy hisob-2. – T.: TMI (o‘quv qo‘llanma) 2004.- 260 b.
20. Xashimov A.A., Majidov A.A. Paxta tozalash korxonalarida buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma T.: SHarq, 2013 y.

21. Shoalimov A.X. Tojiboeva SH.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: TDIU, 2010.
22. Shoalimov A.X. Tojiboeva SH.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2010.
23. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. –T.: Mehnat, 2004.-66-73 b.
24. Abdullaev YO.A., Ibragimov A.T., Raximov M.Y. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. /O‘quv qo‘llanma -T.: Mehnat, 2001.
25. Vahobov A.V, Ibroximov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. /Darslik – T.: SHarq, 2005.
26. Ergeshev E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. /O‘quv qo‘llanma – T.: Moliya, 2000.
27. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. /Darslik – S.: Zarafshon, 2001.
28. Saviskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatii. /Uchebnik – M.: I.P. Finans, 2005.
29. Pardaev M.Q., Xasanov B.A., Isroilov J.I., Po‘latov M.E., eshboev O‘.T., Holiqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012.
30. Ahmadjonov X.I., Raximov M.YU. Moliyaviy tahlil. /O‘quv qo‘llanma –T.: TMI bosmaxonasi, 2004.
31. Ibroximov A.T., Raximov M.YU. Boshqaruv tahlili. /O‘quv qo‘llanma -T.: TMI bosmaxonasi, 2004.
32. Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. /Uchebnik -M.: IPO MP, 2002
33. Pardaev M.Q., Abdukarimov I.T. Iqtisodiy tahlil. /O‘quv qo‘llanma -T.: Mehnat, 2004.
34. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 1-2 qismlar. /O‘quv qo‘llanma -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.

V. Internet saytlari

35. www.ziyonet.uz

36. www.gaap.ru

37. www.bilim.uz

38. www.gov.uz

39. www.titli.uz

40. www.stat.uz

41. www.lex.uz

42. www.mf.uz